

5. <https://fayllar.org/mavzu-sanat-turlari.html?page=4>.

INSONDAGI IJOBIY XARAKTER-XUSUSIYATNI BAHOLOVCHI MAQOLLARNING SEMANTIK GURUHLARI

Aminova Amira,

Romitan tumanidagi 11-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga ijobiy baho ifodalovchi maqollar semantik jihatdan guruhlariga bo‘lingan. O‘zbek xalq maqollarida ijobiy baho ifodalash turli ma’nolar bilan bog‘liq. Aynan shu ma’nolar maqolaning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jumladan, yaxshilik, ilmlilik, donolik, g‘ayratlilik, vatanparvarlik, hayolilik, do‘stlik, saxiylik, hunarlilik, to‘g‘riso‘zlik, to‘g‘riko‘ngillik, olimlik, ahillik, chaqqonlik, uddaburonlik, sabrlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik, erta ish boshlash, mehrlilik, hushyorlik kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: *maqollar, baho munosabati, ijobiy baho ifodalovchi maqollar, salbiy baho ifodalovchi maqollar, semantik guruh*

Maqollar aksiologik leksikani aks ettiruvchi asosiy maydon hisoblanadi, chunki ular xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Zero, paremiolog V.P.Anikin aytganidek: “Xalq tajribasida bo‘lmagan narsa maqollarda ham aks etmaydi”. Milliy madaniy o‘ziga xoslik aynan xalq maqollarida ko‘zga tashlanadi. Maqollar aksiologik leksikani aks ettiruvchi asosiy maydon hisoblanadi, chunki ular xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Zero, paremiolog V.P.Anikin aytganidek: “Xalq tajribasida bo‘lmagan narsa maqollarda ham aks etmaydi”. Milliy madaniy o‘ziga xoslik aynan xalq maqollarida ko‘zga tashlanadi.

Baho munosabati tilning deyarli barcha sathlarida namoyon bo‘la oladi. Bu borada asosiy sathlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Oraliq sath maqomidagi “fonetika”da baho ifodalash ko‘zga tashlanmaydi. Morfologik sathda boshqa turkumlarga nisbatan sifat so‘z turkumida baholash munosabati imkoniyatlari keng ekanligi namoyon bo‘ladi. Sifat leksemalarning baho munosabatini ifodalashi, bir tomondan, ayrim sifatlarda ijobiy yoki salbiy ma’noning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘rtib

turishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, matn bilan aloqador bo'ladi. Ijobiy yoki salbiy bahoni kuchliroq ifodalash uchun, avvalo, neytral (betaraf) baho berishdan uzoqlashish zarur. Baho ifodalashda darajalanish faqatgina ijobiy yoki salbiy baho berishda ko'zga tashlanadi. Bunday xususiyat neytral baholashda mavjud emas.

Baho berish ikki xil shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisi, aniq baho berish bo'lib, bunda tildagi leksemalar orqali ijobiy, salbiy yoki neytral baho ifodalanadi. Baholashning so'zda o'z ifodasini topishi xususida olim Zafar Pardayev quyidagicha yozadi: "Tildagi mavjud lingvostilistik birliklar, voqelik obyektlarining bahosi tilda, xususan, so'zda o'z ifodasini topadi" [5:108]. N.D.Arutyunova to'g'ri ta'kidlaganidek, so'z leksik ma'nosining baholovchi yoki leksik-semantik variant baholovchi komponenti ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi qism sifatida qabul qilinadi [1:148]. Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, qiyoslashning yuzaga kelishini ta'minlovchi asosiy komponentlar sifatida ishtirok etuvchi yaxshi yoki yomon baholar har safar bir-biri bilan qiyoslashda emas, balki baholash xususiyatiga ega bo'lmagan biror narsa bilan qiyoslanganda qabul qilinadi" [5:105-108].

Maqol orqali shaxsga beriluvchi baho so'zlovchining biror inson yurish-turishi, o'zini tutishi, xarakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash tarzi, oilaviy ahvoli, yoshi, jismoniy holati va boshqalarga maqol orqali bergan ijobiy, salbiy yoki neytral subyektiv munosabati mahsuli hisoblanadi. Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi maqollar. O'zbek xalq maqollarida ijobiy baho ifodalash turli ma'nolar bilan bog'liq. Tinglovchida o'z fikrini uyg'otish, unda ijobiy munosabatni yuzaga keltirish uchun murojaatda insonni sharaflovchi, maqtov, olqish ifodalovchi birliklardan foydalaniladi. O'zbek xalq maqollari tarkibida yaxshi insonga ishora qiluvchi maqollar borki, ular tinglovchiga xush yoqadi.

I.1.2.1. Yaxshilik. Yaxshi inson hammaga xush yoqadi. Uning yurish-turishi, o'zini tutishi, gap-so'zlari, atrofdagilarga bo'lgan munosabati hammani o'ziga jalb etadi. Yaxshi insonning tashqi ko'rinishi hech narsani o'zgartirmaydi. Yaxshi insonlarga nisbatan ijobiy baho munosabatining ifodalanishi quyidagi maqollarda ko'zga tashlanadi: "Yaxshi odam qarisa ham so'zi aynimas, Yaxshi ot qarisa ham, yurishi aynimas", "Echkining yog'i bo'lmas, Yaxshining — dog'i", "Yaxshi otga qamchi kerakmas, Yaxshi qizga — sovchi",

“Yaxshi xunuk libos bilan ham yaxshi”, “Yaxshi yurgan yerida, Tinchlik solar eliga”.

I.1.2.2. Ilmlilik. Ilmli inson har yerda va har qachon ilmi ortidan o‘zi va atrofdagilariga foyda keltiradi. Ilmli odam ilikli suyakka qiyoslanadi. Bunday insonlarning har bir so‘zi tanga orom baxsh etadi. “Ilmli odam — ilikli suyak”, “Ilmlining so‘zi — o‘q” maqollarida ham ilm egalari ulug‘langan, sharaflangan.

I.1.2.3. Donolik. Donolik ulug‘ fazilat. Dono kishi doimo faqat zarur, foydali gapni aytadi. Quyidagi maqollarda dono kishining shaxsiyati, yoqimli suhbat, g‘amxo‘rligi, nasihatgo‘yligi, og‘ir-bosiqiligaga nisbatan ijobiy baho munosabati ifodalangan: “Buloqning suvi tiniq, Dononing — suhbat”, “Dono aytsa, el aytgani, Elning g‘amin yeb aytgani”, “Dono durdan a‘lo”, “Dono naqli — hayot aqli”, “Dono qarisa ham, donoligi qarimas”, “Ma‘rakaga dono aralashsa, Tuzilmay qolmas”, “Ma‘rakada topib gapirgan — dono, O‘zini tutib o‘tirgan ham — dono”.

I.1.2.4. G‘ayratlilik. G‘ayratli odamning xususiyatini ko‘rsatuvchi “G‘ayratlidan ilon qochib qutulmas”, “G‘ayratlidan quyon qochib qutulmas” maqollarida ijobiy baho munosabatini badiiyoq, kuchliroq aks ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, muloqotning samarali kechishi uchun ijobiy baho ifodalovchi maqollardan ko‘proq foydalanish lozim.

I.1.2.5. Vatanparvarlik. Vatanparvarlik ruhidagi xalq maqollarida ham ijobiy baho munosabati aks etib turadi: “Vatanga kelgan — imonga kelar”, “Vatani borning baxti bor, Mehnati borning — taxti”.

I.1.2.6. Hayolilik. Hayoli, iboli qizlar, oilaning, ota-onaning obro‘-e‘tiborini ko‘taradi. O‘z hayosi ortidan maqtovlar eshitadi, olqishlar oladi. Hayoli qiz parilardan ham ustun qo‘yiladi: “Pardali qiz – pariga tengsiz”.

I.1.2.7. Do‘stlik. Har bir odamning do‘st bilan tirikligi, do‘sti bor odam hech qachon yengilmasligi ”Do‘st do‘stga qalqon”, “Daraxtni tomir saqlar, Odamni – do‘sti” maqollarida, ko‘p do‘st orttirishning foydasi “Aqli ko‘pni dov olmas, Do‘sti ko‘pni yov olmas”, “Bilakli alp birni yiqar, Do‘sti ko‘p — mingni” maqollarida, chin do‘stning qavm-qarindosh bilan barobarligi, hatto kezi kelganda ulardan-da ustun turishi “Chin do‘st tug‘ishganing bilan teng”, “Chin do‘st yuz xizmatchidan yaxshi”, “Yaxshi do‘st yuz qarindoshdan yaxshi”, “Qalin o‘rtoq qarindoshdan ortiq” maqollarida o‘z aksini topgan.

I.1.2.8. Saxiylik. Saxiy, ochiqqo‘l odam birovga bir narsa bersa hech minnat qilmaydi, go‘yo o‘zini bermagandek tutadi. Qallob, o‘z manfaati yo‘lida turli nayranglar ishlatuvchining shirin so‘zi, xushomadidan saxiy odamning jahli, g‘azabi afzal. Saxiy minnat qilmaydi, berganini el orasida aytib yurmaydi. Qo‘li ochiq inson shu xislati orqasidan yaxshilikka erishadi. Shu va shu kabilar “Saxiyning o‘ng qo‘li berar, Chap qo‘li bilmas”, “Qallobning bolidan saxiyning zahri yaxshi”, “Saxiy berganini aytmas, Er aytganidan qaytmas”, “Saxiyning qo‘li ochiq, Qo‘li ochiqning yo‘li ochiq”, “Qo‘li ochiqning yo‘li ochiq” o‘zbek xalq maqollarida aks etgan.

I.1.2.9. Hunarlilik. Biror hunarning egasi bo‘lish bilan inson o‘zi moddiy daromad manbaiga ega bo‘la oladi, shuningdek hunarli kishi xor-u zorlik ko‘rmaydi. “Hunarli insonlarga ijobiy baho berishda “Hunarli er xor bo‘lmas, Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas”, “Hunarli yigit — mevali daraxt”, “Hunarli kishi och qolmas”, “Hunari borning oltin bilagi bor”, “Hunarmandning noni — butun” maqollarini qo‘llaydilar. Ko‘rinib turibdiki, bu turdagi maqollar asosan, erkak jinsiga mansub kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. To‘g‘rilik ma‘nosi bilan bog‘liq barcha maqollarda ijobiy baho ifodalanadi.

I.1.2.10. To‘g‘riso‘zlik. To‘g‘riso‘zlik insonni insonga yaqinlashtiradi. Shuning uchun to‘g‘riso‘z odam tug‘ishgandan afzal qo‘yiladi: “To‘g‘ri so‘zlagan odam tug‘ishganingdan afzal”.

I.1.2.11. To‘g‘ri ko‘ngillilik. To‘g‘riko‘ngil kishi haqidagi “Dili to‘g‘rining yo‘li to‘g‘ri” maqolida ko‘ngil poklik oqlanadi.

I.1.2.12. Olimlik. Olimlik xususiyatiga baho beruvchi maqollarda ko‘proq olim odamning dono so‘zlashi, kamgapligi bilan bog‘liq fikr mavjud: “Olim so‘zi oz, Oz bo‘lsa ham soz”, “Olim aytgani — olam aytgani”.

I.1.2.13. Ahillik. Ahillik, inoqlik, totuvlik tushunchalarini ifodalovchi “Og‘a-ini totuv bo‘lsa, ot ko‘p, Opa-singil totuv bo‘lsa, osh ko‘p”, “Og‘a-ini totuv bo‘lsa, Tog‘ni talqon qilar”, “Opa-singil totuv bo‘lsa, Uyni bo‘ston qilar”, “Egachi-singil inoqligi — oilaning quvnoqligi”, “Ko‘pning qo‘li ko‘kka yetar” maqollarida ham ijobiy baho ifodalanadi.

I.1.2.14. Chaqqonlik. “Chaqqon chora topar, Beparvo — bahona”, “Daryo chopar, Chaqqon topar” “Cho‘ponning chaqqoni takadan sut sog‘adi” maqollarida chaqqon odam qanday qilib bo‘lsa-da, bajarish

kerak bo‘lgan ishning chorasini topib bajarishi, chaqqon kishi har narsaning ilojini topishi aks etgan.

I.1.2.15. Uddaburonlik. Uddaburon” pragmemali “Uddaburon o‘rgimchakka shoyi to‘qitadi”, “Uddaburon qurbaqaga taqa qoqadi”, “Uddaburon maymunga bo‘yra to‘qitadi”, “Uddaburon ajdarga yer haydatadi”, “Epini topgan – elak bilan suv ichar”, “Epini topgan ikki oshar”, “Yetuk kishi qo‘li bilan quyon tutadi” kabi maqollarda maqtoov, olqish, o‘zgalardan ustun qo‘yish kabi ijobiy ma’nolar reallashadi.

I.1.2.16. Sabrlilik. “Sabrli kishining ishi soz”, “Sabrli qul murodiga yetar”, “O‘ttiziga chidagan o‘ttiz biriga ham chidar” maqollarida sabrli insonning ishi yurishishi, istaganiga erishishi va chidamliligi uning uchun zarur ekanligi haqidagi fikrlar mavjud.

I.1.2.17. Kamtarlik. “Kamtar bo‘lding — gavhar bo‘lding”, “Kamtar kerilmaydi, Mol-dunyoga berilmaydi” maqollarida kamtar kishining xarakter-xususiyati yoritilgan va ijobiy baho munosabati aks etgan.

I.1.2.18. Mehnatsevarlik. Mehnat insonni ulug‘laydi, uni ko‘klarga ko‘taradi. Mehnat qilgan inson bir kun albatta rohatini ham ko‘radi. Ishlagan kishi xor bo‘lmaydi, zor qolmaydi. Shu kabi fikrlar quyidagi maqollarda aks etgan: “Beli bog‘liqning dili bog‘liq”, “Ishlagan xor bo‘lmas”, “Ishsevarni el sevar”, “Mol boqqanning barmog‘idan moy tomar”.

I.1.2.19. Erta ish boshlash. “Erta ekan erta yig‘ar” maqolida so‘zlovchining ma‘lum shaxs bajarayotgan harakatiga qo‘shimcha baho berishda qo‘llanilib, barvaqt boshlangan ishning samarasi haqida gap ketganda ham ishlatiladi.

I.1.2.20. Mehrlilik. Mehr insonni bir-biriga yaqinlashtiradi, qalbni yoritadi. Mehr ko‘rsatgan kishi hammaga xush yoqadi. “Mehri borning sehri bor”, “Mehrli odam — sevimli” maqollarida samimiy ijobiy baho sezilib turadi.

I.1.2.21. Hushyorlik. Har yerda, har joyda biror ishni amalga oshirishda inson ehtiyotkor bo‘lishi lozim. Ehtiyotkorlik bilan birgalikda hushyorlik ham zarur. Har ishda hushyor bo‘lgan kishini aldash, chuv tushirish juda qiyin. Xalq orasida hushyorlikka chaqiruvchi quyidagi maqollar mavjud: “Hushyorni yov bosmas, Yov bossa ham dov bosmas”.

I.1.2.22. Odillik. Odil, adolatli insonning yuzi, husni oyga qiyoslanadi. Hattoki, oqib turgan tiniq soyga qiyos etiladi. Buning sababi esa albatta, adolatlikdadir. “Odil kishi oyday, oqib turgan soyday” maqolida odil insonga nisbatan ijobiy baho berilgan.

I.1.2.23. Intizomlilik. Intizom g‘alaba qurolidir. Tartib-intizom bor joyda rivojlanish, o‘shish bo‘ladi. Janglarda ham intizomli qo‘shin hech qachon yengilmaydi. “Intizomli lashkar yengilmas” maqoli orqali faqatgina lashkarga emas, balki intizomli bo‘lgan har qanday kishi nisbatan ijobiy baho munosabati mavjud.

I.1.2.24. Intiluvchanlik. Intilgan inson murodiga yetadi, maqsadiga erishadi. Intilgan kishi hech qachon yengilmaydi: “Intilgan – yengilmas”.

I.1.2.25. Izlanuvchanlik. Bir qator o‘zbek xalq maqollarida izlanuvchan insonlarga ijobiy baho ifodalash aks etgan: “Izlaganga tole yor”, “Izlagan topa”, “Qidirgan gavhar topa”, “Qidirganga toshdan tulki topilar”, “Izlaganga – ezid yor”.

I.1.2.26. Chidamlilik. “Chidamli er lochin tutar” maqolida er yigitlarning chidamli bo‘lishi kerakligi, chidamli kishi ko‘zlagan maqsadiga erishishi kabilari yoritilgan.

I.1.2.27. So‘zamollik. Ko‘p so‘zlash, so‘zamollik kabilarga nisbatan ko‘p hollarda salbiy baho ifodalanadi, ammo “So‘gat tolga qush qo‘nar, So‘zamolga so‘z ko‘nar” maqolida ijobiy baho ifodalash ko‘zga tashlanadi.

I.1.2.28. Tavakkalchilik. “Tavakkalchining kemasi botmas” maqolida tavakkalchi insonlarga ijobiy baho berish mavjud va bu orqali tavakkalchilikning foydali tomonlarining borligi ham ko‘rinadi.

I.1.2.29. Tilni tiyish. Har bir kishi kerak o‘rinda tilini tiyishi, keraksiz gapni aytmashligi kerak. Tilini tiygan kishi o‘zini har xil balolardan asraydi, oqibati yomon hodisalardan yiroq bo‘ladi. “Tilini tiygan boshini qutqarar”, “Indamagan uyday balodan qutiladi” maqollarida tilni tiya bilgan kishiga nisbatan ijobiy baho munosabati ifodalangan.

I.1.2.30. Til bilish. Inson qancha ko‘p tilni bilsa shuncha uvafoqiyatga erishadi, dunyo ko‘radi, fikrlash doirasi kengayadi, dunyoqarashi o‘sadi. Xalq maqollarida ham til bilgan kishining yo‘lda qolib ketmasligi bilan bog‘liq fikrlar aks etgan: “Til bilgan yo‘lda qolmas”.

I.1.2.31. Aybini bilish. “Aybini bilgan – avliyo”, “O‘z aybini bilgan – mard” maqollarida har bir inson o‘z qilgan aybini bilsa, uni kechirish mumkinligi, aybini tan olib, uni sezish ham bir xislat ekanligi, bunday odamlar mard bo‘lishi borasidagi fikrlar bayon etilgan.

I.1.2.32. Erta uyg‘onish. “Uch kun barvaqt turgan – bir kun yutar”, “Erta turgan erkakning bir rizqi ortiq, Erta turgan ayolning ikki rizqi ortiq” maqollari kishilarni vaqtli uyg‘onishga undasa, ikkinchi tomondan barvaqt turadigan kishilarning boshqalardan farqini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

I.1.2.33. Shoshmaslik. Kishilar “Oshiqmagan aravali quyonga yetibdi”, “Oshiqmagan ovchi humo ovlar”, “Shoshmagan er oqqush tutar” maqollarini qo‘llaganda o‘zlarini hali ko‘p ishlar qilishga qodirliklarini, ehtiyotkorliklari ketidan katta narslarga ega chiqishlarini ta’kidlamoqchi bo‘ladilar.

I.1.2.34. Ehtiyotkorlik. Ehtiyotkorlik bilan bog‘liq yana quyidagi maqollar ham borki, bularda bir nojo‘ya ishni bajarib undan zarar ko‘rgach boshqa ishni o‘ylab, fikr qilib, ehtiyot bo‘lib bajaruvchi kishilar xususiyatiga nisbatan baho beriladi: “Og‘zi kuygan qatiqniyam puflab ichadi”, “Sutdan og‘zi kuygan sovuq suvniyam puflab ichadi”, “Og‘zi kuygan oshini puflab ichadi”, “Tikan bosgan qadamini bilib bosar”, “Ilondan qo‘rqqan oladan xatlamas”.

I.1.2.35. Mardlik. Mardlik tushunchasi bilan bog‘liq xalq maqollari gender jihatdan xoslangan bo‘lib, erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunday maqollarda tantanavorlik sezilib turadi va mard o‘g‘lonlarga ijobiy baho munosabati ifodalanadi: “Mard omadli bo‘ladi”, “Botirga o‘t ham teng, suv ham teng”, “Er yigit o‘lar yeriga kulib boradi”, “Botir elin yovga bermas, chechan so‘zin dovga bermas”, “Maydonda sinalgan – elda aziz”, “Mardning har yerda manzili bor”, “Mard o‘lar, nomi qolar”.

O‘zbek xalq paremlarida shaxs xarakterini tavsiflovchi ijobiy baho insonlarning yaxshi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs xarakterini tavsiflovchi ijobiy bahoga yaxshilik, ilmlilik, donolik, g‘ayratlilik, vatanparvarlik, hayolilik, do‘stlik, saxiylik, hunarlilik, to‘g‘riso‘zlik, to‘g‘riko‘ngillik, olimlik, ahillik, chaqqonlik, uddaburonlik, sabrlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik, erta ish boshlash, mehrlilik, hushyorlik, odillik, intizomlilik, intiluvchanlik, izlanuvchanlik, chidamlilik, so‘zamollik, tavakkalchilik, tilni tiyish, til

bilish, aybini bilish, erta uyg‘onish, shoshmaslik, ehtiyotkorlik, mardlik kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – Москва, 1988.
2. Aminova A.O‘. O‘zbek xalq maqollarida “Baho” konsepti / Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – № 2 – B. 203-207
3. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. дис. автореф. — Самарқанд, 2019.
4. Bibish Muhsinovna Jo‘rayeva, Amira O‘lmas qizi Aminova. O‘zbek xalq paremalarida shaxs xarakterini tavsiflovchi salbiy baho O‘zbek halk paremasında kişi karakterinin olumsuz değ erlendirilmesi Uluslararası Türk dünyası Yunus Emre sempozyumu 24-27-mayis.2021 – b. 497-501
5. Пардаев З. Нутқ инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши (сифат лексемалар асосида)// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – № 1.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
7. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.

“SHIMORA”MI YOKI “SHUMORA”

Astanova Gulnora Aminovna,

BuxDU dotsenti

Mirzoyeva Yulduz Yusup qizi,

BuxDU magistranti

Annotatsiya. Jahon adabiyotshunosligida “Ming bir kecha” asarini o‘rganish bir necha yuz yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu davr mobaynida Sharq va G‘arb mamlakatlarida mazkur asarga oid yuzlab asarlar yaratildi. Natijada jahon adabiyoti durdonasi bo‘lmish mazkur asarning dunyo madaniyati tarixidagi o‘rni yuqori baholandi. Shu bilan birga mazkur asar o‘zbek adabiyotiga ham samarali ta’sir ko‘rsatgan. “Ming bir kecha” asari zero o‘zbek adabiyoti uchun tarjima asar bo‘lsa ham, asrlar davomida turonzamin xalqlari mazkur